



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 7-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



**ZAMONAVIY RAHBAR UCHUN XORIJIY TIL VA TARJIMA
KOMPETENSIYASINING AHAMIYATI**

E.T.Tursunnazarova

PhD, dotsent

O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti

Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrası mudirasi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada zamonaviy rahbar faoliyatida xorijiy til va tarjima kompetensiyasining ahamiyati ilmiy-ommabop tarzda yoritiladi. Xalqaro hamkorlik, diplomatik muloqot, boshqaruv kommunikatsiyasi va global axborot almashinuvida xorijiy til bilishning strategik o'rni misollar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, tarjima kompetensiyasining rahbarlik samaradorligi, pragmatik muloqot va institutsional kommunikatsiyadagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

KALIT SO'ZLAR: xorijiy til, tarjima kompetensiyasi, rahbarlik kommunikatsiyasi, diplomatik muloqot, boshqaruv diskursi, xalqaro hamkorlik, pragmatika, institutsional kommunikatsiya

**ЗНАЧЕНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА И ПЕРЕВОДЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНЦИИ ДЛЯ СОВРЕМЕННОГО РУКОВОДИТЕЛЯ**

PhD, доцент Э.Т. Турсунназарова

Узбекский государственный университет мировых языков

Факультет переводоведения

Заведующая кафедрой теории перевода английского языка

АННОТАЦИЯ: В данной статье в научно-популярной форме рассматривается значение иностранного языка и переводческой компетенции в деятельности современного руководителя. На основе примеров анализируется стратегическая роль владения иностранными языками в международном сотрудничестве, дипломатическом общении, управленческой коммуникации и глобальном обмене информацией. Также раскрывается значение переводческой компетенции для эффективности управления и институциональной коммуникации.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: иностранный язык, переводческая компетенция, управленческая коммуникация, дипломатическое общение, управленческий дискурс, международное сотрудничество, прагматика, институциональная коммуникация



THE IMPORTANCE OF FOREIGN LANGUAGE AND
TRANSLATION COMPETENCE FOR MODERN LEADERS

E.T. Tursunnazarova, PhD, Associate Professor
Uzbekistan State World Languages University
Faculty of Translation Studies
Head of the Department of English Translation Theory

ABSTRACT: This article discusses the importance of foreign language and translation competence in the activities of modern leaders from a scientific-popular perspective. Using practical examples, it analyzes the strategic role of foreign language proficiency in international cooperation, diplomatic communication, managerial interaction, and global information exchange. Furthermore, the article highlights the significance of translation competence for effective leadership and institutional communication.

KEYWORDS: foreign language, translation competence, managerial communication, diplomatic interaction, management discourse, international cooperation, pragmatics, institutional communication

Bugungi globallashuv davrida rahbarlik tushunchasi tubdan o'zgarib bormoqda. Endilikda zamonaviy rahbar faqat tashkilot yoki muassasani boshqaruvchi shaxs emas, balki xalqaro kommunikatsiya olib boruvchi, global axborot bilan ishlovchi va turli madaniyatlar o'rtasida samarali muloqot qila oladigan lider sifatida qaralmoqda. Ana shunday sharoitda xorijiy til bilish va tarjima kompetensiyasi rahbarning eng muhim professional ko'nikmalaridan biriga aylanmoqda.

Oldin xorijiy til bilish ko'proq filologlar yoki tarjimonlar uchun zarur deb qaralgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'nikma iqtisodchi, diplomat, davlat xizmatchisi, tadbirkor va ayniqsa rahbarlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy boshqaruv xalqaro hamkorliksiz rivojlana olmaydi. Masalan, xalqaro investitsion forumlarda ishtirok etayotgan rahbar ingliz tilidagi iqtisodiy terminlarni tushunmasa yoki tarjima mazmunini to'liq anglamasa, muzokara samaradorligi pasayishi mumkin. "Strategic partnership", "sustainable development", "institutional reform", "capacity building" kabi terminlar oddiy lug'aviy ma'nodan tashqari siyosiy va pragmatik mazmun ham tashiydi.

Ayniqsa, diplomatik uchrashuvlarda til nozikligi juda muhim. Ingliz tilidagi: "We appreciate your position" iborasi oddiy tarjimada: "Biz sizning pozitsiyangizni qadrlaymiz" degan ma'noni bildiradi. Ammo diplomatik diskursda u ba'zan: "Biz sizning fikringizni tushunamiz, ammo uni to'liq qo'llab-quvvatlay olmaymiz" degan ehtiyotkor pragmatik ma'noni ham anglatadi. Rahbar tilni tushunsa, bunday yashirin kommunikativ signallarni tezroq anglaydi.

Bugungi rahbar uchun xorijiy til bilishning yana bir muhim tomoni - bu tezkor axborot olish imkoniyatidir. Dunyodagi eng yangi ilmiy maqolalar, boshqaruv strategiyalari, texnologik yangiliklar va xalqaro hisobotlarning asosiy qismi ingliz tilida e'lon qilinadi. Tarjima kutib o'tirmasdan axborotni to'g'ridan-to'g'ri o'qish esa rahbarga vaqt va strategik ustunlik beradi. Masalan, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot yoki xalqaro menejment bo'yicha ko'plab zamonaviy tadqiqotlar dastlab ingliz tilida chop etiladi. Til bilgan rahbar bu bilimlarni birinchi bo'lib o'zlashtira oladi. Shuningdek, tarjima kompetensiyasi ham rahbar uchun muhim omil hisoblanadi. Bu degani rahbar professional tarjimon bo'lishi kerak degani emas. Ammo u:

- tarjima sifati;
- terminologik aniqlik;
- diplomatik iboralar;
- rasmiy uslub;
- pragmatik ma'no kabi jihatlarni tushunishi zarur.

Chunki ayrim hollarda bitta noto'g'ri tarjima katta muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan: "We will consider the proposal" jumlasini ayrim kontekstlarda: "Taklifni ko'rib chiqamiz" emas, balki, "hozircha aniq javob bera olmaymiz" degan diplomatik ehtiyotkorlikni anglatadi. Agar bu ibora noto'g'ri talqin qilinsa, muzokarada ortiqcha kutish yoki tushunmovchilik paydo bo'lishi mumkin.

Bugungi texnologik davrda sun'iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari keng rivojlanmoqda. Google Translate, DeepL yoki boshqa AI platformalari tarjimini ancha tezlashtiryapti. Biroq ular hali ham madaniy noziklik, diplomatik ohang va pragmatik ma'nolarni to'liq anglay olmaydi. Shu sababli inson tafakkuri va kommunikativ sezgirlik hanzu muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy rahbar uchun xorijiy til bilish yana bir jihatdan muhim - bu imij va ishonch masalasi. Xorijiy delegatsiya bilan tarjimonsiz qisqa suhbat qurishning o'zi ham professional va zamonaviy rahbar obrazini yaratadi. Bu esa xalqaro munosabatlarda ishonchni oshiradi.

Mutaxassislarning fikricha, kelajakda eng muvaffaqiyatli rahbarlar:

- global fikrlaydigan;
- kommunikativ faol;
- texnologiyani tushunadigan;
- xorijiy tillarni biladigan;
- madaniyatlararo muloqotga tayyor liderlar bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy til va tarjima kompetensiyasi bugungi rahbar uchun oddiy qo'shimcha ko'nikma emas, balki professional muvaffaqiyatning muhim omiliga aylanmoqda. Til bilgan rahbar dunyoni kengroq ko'radi, tezroq qaror qabul qiladi, xalqaro maydonda erkin harakat qiladi va samarali boshqaruvni yo'lga qo'ya oladi.

Demak, zamonaviy boshqaruvning muhim siri bu bilim, kommunikatsiya va til kompetensiyasining uyg'unligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Алексеева И. С. Введение в переводоведение: учеб. пособие. - 7-е изд., стер. - Москва : Академия, 2013. - 368 с.
2. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение: учеб. пособие. - Москва : ЭТС, 2002. - 424 с.
3. Латышев Л. К. Технология перевода: учеб. пособие для студентов лингвистических вузов и факультетов. - 2-е изд., перераб. и доп. - Москва : Академия, 2005. - 320 с.
4. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. - Москва : Слово/Slovo, 2000. - 624 с.
5. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - Волгоград : Перемена, 2002. - 477 с.
6. Иссерс О. С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. - 5-е изд. - Москва : ЛКИ, 2008. - 288 с.
7. Northouse P. G. Leadership: Theory and Practice. - 9th ed. - Thousand Oaks, CA : SAGE Publications, 2021.
- Yukl G., Gardner W. L. Leadership in Organizations. - 9th ed. - Harlow: Pearson, 2020.
8. Bass B. M., Riggio R. E. Transformational Leadership. - 2nd ed. - Mahwah, NJ : Lawrence Erlbaum Associates, 2006. - 282 p.
9. Grice H. P. Logic and conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts / ed. by P. Cole, J. L. Morgan. - New York : Academic Press, 1975. - P. 41-58.
10. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. - Cambridge : Cambridge University Press, 1987. - 345 p.
11. Goffman E. Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior. - New York : Pantheon Books, 1967. - 270 p.
12. Hofstede G., Hofstede G. J., Minkov M. Cultures and Organizations: Software of the Mind: Intercultural Cooperation and Its Importance for Survival. - 3rd ed. - New York : McGraw-Hill, 2010. - 561 p.
13. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. - Paris : UNESCO, 2021.